

**Debocha, muqaddima. “West of Kabul, East of New York”****(Ingliz tilidan tarjima)**

TOJIYEV Xonimqul f.f.n., GulDU dotsenti

XAMDAMOVA Nilufar Farhod qizi kafedra stajor-o'qituvchisi

**Annotasiya:** Bu maqola Afg'on- Amerika yozuvchisi Mir Tamim Ansaryning ilk tarixiy avtobiografik asari “West of Kabul, East of New York”, ya'ni “Qobulning G'arbi, Nyu Yorknin Sharqi” asarining “Debocha” qismining o'zbek tiliga ilk tarjimasi bo'lib, unda muallifning dunyo miqyosida, xususan, G'arb va Sharq (Afg'oniston va Amerika) mintaqalarida tinchlikni saqlash masalasida kuyib-pishib bildirgan taklifi hamda Afg'on xalqining butun dunyo o'ylaganidek terrorist emasligini, aslida, Bin Laden va uning tarafdorlarining ishi ekanligini isbotlashga qaratilgan.

**Kirish so'zlari:** Afg'oniston va uning ezilgan xalqi, ULTEMA TULE, Bin Laden, Tolibonlar, tolk shou, G'arb va Sharq orasidagi farq, Tosh asr, to'yib ovqat yeyish va hokazo.

Ko'p uzoq yillar mobaynida, mening aka –uka, opa-singillarim Amerikadagi yolg'iz-yagona Afg'onlar bo'lsa kerak deb o'ylab yurardim. Men o'zimni odamlarga tanishtirganimda, ular qiziq ism, siz qayerliksiz deb so'rashar edi. Men Afg'onistondan ekanligimizni aytganimda, men o'zmni o'zgarib qolgan odamday his qilar edim. Bu yoqimli edi, bu kuzatuvchanlik, bu sinchkovlikning bir turi hisoblanadi. Afg'onistonni qayerdaligini ko'pchilik bilmas edi, ba'zilar esa shunday joy borligidan hayron bo'lib qoldi. Bir marta kollej gimnastika zalidagi darsda trener mening erkin o'q otish mashqimni kulgili deb hisobladi. “Siz butun hayotingiz davomida qayerda yashagansiz?” deb haxolab kulib yubordi. “Afg'oniston?” Men “ha” deganimda u qotib qoldi. U Afg'oniston degani shunchaki bir ibora, ifoda deb o'ylabdi. ULTEMA TULE “Xaritadan tashqaridagi, xaritaga sig'may qolgan” degan ma'noni anglatadi. TULE – klassik antic dunyoning odamlar yashaydigan dunyoning eng chek-chegarasi, ba'zi geografikchilarning bilishlaricha



Islandiya = muzlandiyada boshqa, ba'zilarining tushunishicha u Mayinlentda – Mainland qit'a oroli esa eng kata Shotland orollari deb o'ylashgan. ULTEMATTULE juda g'alati qiziq, tule demak eng chekka chegara yoki dunyoning cheti. Sobiq sovetlarning istilosi Afg'onistonni xaritaga kiritilishiga sabab boldi, biroq bu uzoq davom etmadi. 2001-yilga kelib yangicha tanishtirish mumkin bo'ldi. "Afg'onistonmi -a? Men sizni hech qachon Afrikadansiz deb o'ylamabman, hatto taxmin- gumon ham qilib topa olmagan bo'lar edim". Sentabrning 11 da, 2001 yili hamma narsa o'zgardi. Birdaniga, men qayerga borsam begonalar Qandahar, Qunduz, Mozori Sharif haqida gaplashayotgan bo'lar edi.

12-sentabrda birdan Afg'onistonning nomi yomon salbiy tomondan mashhurligi mening kichkina hayotimda vulqondek daqiqalarni o'ziga xos portlashlarni hosil qildi.

O'sha kuni men San Fransisko bo'ylab, mashinamni haydab, radiodagi gaplarni eshitib ketayotgan edim. Mening miyam topshiriqlar, davlat korxonasi va chegaralar, chekka joylar, har xil tashabbuslar, faoliyatlar, ishlar to'g'risida o'ziga-o'zi tinmay javrab ketayotgan edi, aqlli ekran hosil qilgan his-hayajonlarimni tartibsizlik, g'ala-g'ovur, g'ulg'ula, chalg'ish, esankirash, dovdirash, iztirob, ko'ngil g'ashligi, besaranjomlik, noittifoqlik, nifoq, janjal-suron markazida qolib ketganday his qildim o'zimni.

Radioda mehmon ayol yig'lab urushga borayotgan urushqoqlarga qarshi Nyu York va Vashingtondagilarni tinchlik tarafida bo'lishlarini xohlardi. Tolk-shouning boshlovchi mezboni uning ustidan kulardi. Bir odam kirib dushman Afg'oniston emas, balki shu urushni hoxlovchi odamlar ekanligini aytdi. Tolk-shouni olib borayotgan odam o'ylanib qolib "Sizning gapingizda jon bor, sir" dedi.

Navbatdagi mehmon Afg'onistonga nisbatan nima qilish mumkinligi haqida qattiq-qattiq gapirdi: "U joyni yo'q qilish kerak. U odamlarga bu narsa saboq bo'lsin. Uning atrofini sim to'r bilan o'rab tashlang. Afg'onistonliklarga dori-darmon bermang, oziq-ovqatdan qisib qo'ying, u odamlarni och qoldiring". Men Afg'onistonni kormaganimga 35 yildan oshdi, biroq mezbonlar hali-hanuz mening ichimda va men halu-hanuz oxir zamoni eslatib yuboradigan qahrli gaplarni eshitganimda, o'zimni yomon sezardim. Men farishta misol katta buvimni ko'z oldimga keltirdim. U Ansariylar oilasining farishtasi misol qalbi go'zal ayol edi. Oh, ammo uning dunyodan o'tganiga ko'p yillar bo'ldi. Biroq mening miyamda



u o'sha kuni yana o'ldi. Men yomg'irday yog'ilayotgan bombalar rasmini xayolinga keltirdim, ularni go'yo ko'rib turardim. Men otamni ko'rdim. U odam sobiq Sovetlar uning mamlakatini qisib, qisqichga solib, aylantirganlarida hech qayoqqa ketmagan, keta olmagan otamni ko'rdim. Uning ham o'tkaniga ancha bo'ldi. Agar u tirik bo'lganida hozir Qobulda bo'lar edi. 83 yoshli odam ko'chalardagi olaquroq parcha gilamlar ustida yurar ekan, uning qovurg'alari shundoqqina ko'rinib turgandek korinardi menga. Bizning yerimiz atrofini o'rab turgan to'siqdan qarab turgan ko'plab odamlar qatorida go'yoki men ham bor edim. Men radioda gapirgan mehmonlar havas qilmadim, ammo men chuqur sarosimaga tushib, bezovtalanib qotib qolish, shok bo'lib undan ham battarroq ahvolda ko'rdim o'zimni. Hech kim Afg'onlarning hech kimga zarari tegmaydigan qanchalar beozor, rahmdil ekanliklarini bilmaydigandek tuyuldi menga.

Yer yuzidagi eng kurashchan talabgorlar, zamindagi kambag'allar, ular dunyodagi eng qattiq jinoyatchilardan emasliklarini, hozirda ular o'zlarini ezgan, qiynoqqa solganlardan nechog'lik azob-uqubat chekkanlarini hech kim bilmaydi aslida.

Men o'sha tolk shouga telefon qilmoqchi, eshittirishda qatnashmoqchi ham bo'ldim, biroq men uyimga kelganimda juda uyalib ketdim. Men hech qanday darajadagi ommaviy axborot vositalarida gapga chiqmaganman. Shu sabab men pastga idora ofisimga tushib ba'zi do'stlarimga elektron xat-xabar jo'natdim. Agar men ommaviy axborot vositalariga, boshqa jamoalarga nima degan bo'la olishim mumkinligini to'kib soldim. Aslida menda bunday jasorat yoq edi...

Men xat-xabarni jo'natgan vaqtimda o'zimni qanchalar yaxshi his qilganimni o'zim bilaman. O'sha kuni kechroq ba'zilar men yozgan xabarni o'zlarinign do'sti-yoronlariga jo'natib yuborishlari mumkinmi deb so'rashdi, Men, "albatta, mumkin" dedim chunki men o'zim ellik- oltmishtagina odamga xabar bera olgan bo'lar edim.

O'sha tunda men serverimga kirib 100 ta email topdim. Ularning ko'pchiligini men tanimaydigan begonalar yuborishgan va ular mening xatimga javoban yozilgan dardkashlik ruhidagi nomalar edi. Bu mening miyamni joyiga qoydi. O'zimni endi chetga ololmas, chekina olmas edim. Internetning qudrati bu. Mening electron xatimni yuzlab odamlar o'qib, javoblar yozishgan. Ertasi kuni mening xayolimda kattaroq nimadir ko'tarilib





kelayotganini anglab qoldim. Tushdan keyin men qadrdon do'stim Nic Allendan telefon xabari oldim. Men uni ko'rmaganimga 15 yil bo'lgan edi. U mening e-mailimni olib menga xabar yuborib, salom aytib qoydi.

Bir soat keyin men Ere Novderning telefonini eshitdim. Amerikalik muhandisning o'g'li, men uni 38 yil oldin Afg'onistonda ko'rgan edim. U mening e-mailimni qanday qilib olgan buni tasavvurimga sigdira olmayman. U mening izimni topib, javob salomi yozib yuboribdi. Keyin yana telefon jiringladi.

Bu safar Chikagodan sal ikkilanibroq gapirgan ovoz, "Mening ismim Charlez Sherman". Men u bilan tanishmanmi? "Men sizning emailingizni oldim. Javobini qayerga yuborishni bilmadim. Siz meni bilmaysiz" dedi u. "Unda mening raqamimni qayerdan oldingiz?" so'radim men. "Men sizni Internetdan qidirib topdim. Sizning raqamingizni hamma biladi. Men sizga buni aytmoqchi edim. Sizning xabaringiz menga ko'p narsani sezdirtdi". Men unga rahmat aytib, telefonimni osib qoydim, ammo mening yuragimning hapriqishi to'xtamas edi. G'irt begona odamlar mening elektron xatimni o'qishayotgan edilar va mening raqamimni ola bilar edi. Agar novbatdagi odam menga qo'ng'iroq qilib, "Assalomu alaykum, men Tolibonlar tarafidanman", desa nima qilar edim?

Agar Al-Qoida eshigimni taqillatib kelsa-chi, biror tomi ketgan irqchi mening derazamga g'isht irg'itsachi. Men e-mailimni yashirmoqchi edim. Men yetarlicha odamlarga dardimni ayta oldim. Bor gapim shu edi. Biroq endi juda kech edi. Men e-mailimni tashlab yubora olmas edim. Men unda yozganlarimni tuzata olmasdim, to'ldira olmasdim. Qo'shib yoki o'chirib tashlay olmasdim. Mening e-mailim Qo'shma Shtatlar bo'ylab virusga o'xshab butun dunyoga yoyilib ketdi.

Mening e-mailimdagi hisobotlar oqimi javoblari ko'p edi serverlar men o'qishga ulgurmasdan o'chirib chizib tashlay olmaydi. Radiostansiyalar chaqira boshlashdi meni keyin gazetalar, keyin televideniya to'rtinchi kunga borib men o'zimning dunyo yangiliklari bugun kechqurun degan xabarlarimni ko'rdim. Axiri men kimlardan qo'ng'iroq olmadim, ishonib bo'ladimi ularning hammasiga. Bugunga kelib necha odam e-mailimni olishdi ekan?



Janubiy Afrikadagi radiostansiya mening e-mailimni olgan yolg'iz ularning mamlakatlaridagilarining soni 250000 odamga yetdi. Dunyo bo'ylabchi, men buni o'ylab ko'rishim kerak. Millionlarga yetgan bo'lsa ajabmas bir hafta ichida. Men nimalarni yozganman? O'zim hayratdaman. Nega hamma javob yollashayapti? Meni xijolatga qo'ygan savollar ustida o'ylab ko'rishim kerak. Ommaviy axborot vositalari meni olim hind, bilimdon mutaxassis doka (og'zaki tilda aytsam) deb o'ylashadi. Bu ishda "u ustasi farang" deb hisoblashadi meni. Savollar menga uyasidan uchayotgan qovoq ari-qizil arilarga o'xshab yog'ilar edi. Mening qo'limdan esa ularni qo'l bilan haydashdan boshqa narsa kelmaydi. O'sh esi past kim? Aqli noraso haftalardan boshlab men faqat Charli Rouzning skeptic (har narsaga shubha – gumon bilan qaraydigan odam) basharasi men tomonga menga qarab savol so'ragan edi: "Ammo Tamim... siz Tolibonlarni haqiqatdan ham millatchi fashistlar bilan qiyoslay olasizmi?" degandek.

Men unga Turkiyda uchratgan bir yigit to'g'risida gapirib berishga harakat qildim, u yigit yupqa yo'l-yo'l kostyumda meni o'zining Islom diniga belgi qo'ymoqchi bo'ldi, ammo u meni keyinroq o'qigan adabiyotlarimdagi daxshatlar bilan to'ldirmoqchi bo'ldi, biroq mening uzun ko'p so'zli, mijg'ovlanib aytganlarimni chetga chiqarmoqchi bo'ldi, ammo hech qanday televizor ko'rsatishi mos kelmadi. Men studiyadan chiqib ketdim, mening miyam hech qanday suv tagidagi riflarni olmadi. Men nimani nazarda tutgan edim (men nima demoqchi edim)? Men o'sha emailda qo'llagan so'zlarim qo'pol edi albatta. Tolibonlar, men yozganimdek, Kult, nodonlar, psixlar. "Siz Bin Ladenni o'ylaganingizda Gitlerni o'ylang".

Agar meni millionlab odamlar eshitib turganlarida, unday tilni ishlatmagan bo'lar edim. Ishonchim komilki, men tilimni juda ehtiyot bo'lib o'lchab gapirgan bo'lar edim. Lekin o'sha paytda aftidan menga hech kim quloq solmayotgan edi. Va men noto'g'ri gapirib yubordimmi? Xozir men o'sha so'zlarni aytgan bo'lardimmi? Mening javobim "Yo'q" degan qarorga keldim.

Ikki hafta keyin, amakimning xotini Shafiqa menga qo'ng'iroq qilib, Ahmad Shoh Ma`sud xotirasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lmoqchiligini aytdi, o'sha kuni kechasi nutqlar



bilan to'la-mukammal, videoko'rsatuvlar, posterlar, va ko'pgina nutqlar bilan, u mening kelishim ma'qul bo'lishini aytdi.

Ma'sud Afg'onistondagi so'nggi munosib-ishonchga loyiq Tolibonlarga qarshi edi, u Shimoliy Alliyansni=Ittifoq=Birlashmani bir joyga to'plagan odam edi, ko'zga yaqqol ko'ringan figura edi, Jahon Savdo Markazining hujumlaridan ikki kun burun Arablarning bombasi bilan o'ziga o'zi qo'l ko'targan, o'z joniga qasd qilgan, halok etilgan. Men Ma'suddan faxrlanar edim, va uning xiyonatkorona o'ldirilishi, mening yuragimni pora-pora qilgan edi, biroq men uning xotirasiga o'tkaziladigan xizmatga borishim zarur edi. "Men dam olishim kerak" deb iltijo qildim. Shafiqa birpas jim bo'lib qoldi. Keyin u- "Quloq soling, Tamim, biz hammamiz sizning qilgan ishlaringizdan faxrlanib yurubmiz. Siz xatnoma yozdingiz bu yaxshi. Biroq Ma'sud yigirma uch yil mobaynida bosh bolish o'rniga tosh qo'yib uhladi. U bolalarining ismlarini ham to'liq bilmasa keragov, chunki u mamlakatimizni ozod qilish yuki ostida yurdi. Men o'ylashimcha u ham ba'zi paytlarda charchagan, mening o'ylashimcha siz uning xotira kechasiga bag'ishlangan xizmatda qatnashishingiz zarur". Men uyatdan boshimni ham qildim va u yerda bo'lishimni aytdim.

Keyingi hafta, menga Shimoliy Kengash Birlashma vakili qo'ng'iroq qildi" Sizda Amerika ommaviy axborot vositalarining qulog'i bor. Nima diyishni, qandey aytishni yaxshi bilasiz. Biz nimalar haqida gapirish lozimligini bilamiz. Birga ishlaylik. Hozirdan boshlab, siz notiq vakil bo'lishingiz kerak". "Notiq? Nimaga? Kim uchun?". "Bizning ishimizga. Bizning mamlakatimiz uchun".

Men quloqlarimning bitib qolganini, ko'zlarim orqa eshik tomonga qarab turganini his qildim. Afg'oniston haqiqatdan ham, chindan ham mening mamlakatimmi?

Men qanday qilib Afg'oniston nomidan, yoki musulmonlar nomidan gapira olsam?!" Mening yozganlarim talabga javob beradigan, munosib notiq, vakil bo'la olishim mumkunmikan?"deb hayron bo'laman ommaviy axborot bo'limi xodimlaridan. Qarang, men odamlarga aytib berishim mumkun bo'lgan o'zimning qisqagina tariximdan boshqa narsam yo'qku-dedim men Shimoliy Alliyans vakili bilan bo'lgan og'ayniga. "Balki men Amerikaliklarga Afg'onlar ham hamma qatori, el qatori oddiy isnonlarga o'xshashini ko'ratishga yordam berarman. Bu sohada men shundan boshqa hech narsa qila olmayman.





“Bu ham muhim” dedi u, uning ovozi bezovtalik va tashvishli mayinlashdi va mayuslashib, aftidan umidsizlangandek bo’ldi. Shundan keying kechgan haftalarda, shunga qaramay, ommaviy axborot vositalari meni tinch qoyishmadi va men ularning savollariga javob berishda davom etdim. Shunday bo’lib chiqdiki, mening Afg’oniston haqida aytadigan gapim ko’p ekan, Islom va fundamentalism haqida ham, chunki bu masalalar haqida men butun umrim davomida o’ylab yurar edim. Men hozir yashayotgan dunyo bilan mening ortimda qoldirgan dunyo orasidagi quloqqa unchalik ham yoqmaydigan ohang, tovush uyg’unsizligi, hamohang bo’lmagan nosozlik, kelishmovchilik, ixtilof va u dunyo men uchun yo’qoldi. Dunyoni yo’qotgan birgina men emas ekanman, gapirishda davom etar ekanman, men buni tushunib qoldim. Atrofimda yoqolib, vayron bo’lib borayotgan narsa ko’p ekan. Balki biz haqiqatda yettinchi asrni qumsash, sog’inish, urushlar uncha uzoq emas shekili. Balki yaqin o’tmishda bo’lgan dunyoni sog’inish, o’ziga hos qo‘msashdir balki, uning izlari, hotirasi hanuz Islom dunyosidagi izlari haliyam shundoqqina ko’z oldimda osilib turgandek. Ko’plab odamalarning ota-onalari, bobo-buvalari yoki hic bo’lmaganda kata bobo-buvilari, borki ular o’sha dunyoda bizni katta qilishgan. Ba’zi odamlar hatto dunyoni shaxsan biladilar, chunki ular o’sha dunyoda tug’ulishgan.

Men quloqlarimni bitib qolgnini, ko’zlarim orqa eshik tomonga qarab turganini his qildim. Afg’oniston haqiqatdan ham mening mamlakatimmi?

-Qadrli, aziz o’quvchi, o’zimni sizga to’g’ri tanishtirish uchun bir pasgina nafas rostlashimga ruhsat bering. Ha, men Afgonistonda tug’ilib, o’sha yerda voyaga yetdim u yerni anchagina bilaman, qalbdan bilaman. Ha, men besh vaqt namoz o’qishni o’zimning Afg’on buvimdan o’rganganman; Men Ramazonning birinchi kunida botayotgan quyoshning xidni, bo’yini, isini bilaman, siz o’zingiz yaxshi ko’radigan odamlar bilan eshingiz pillapoyasida birga turganingizda kechgi shafaqda o’zingiz oq ipni qora ipdan farqlay oladigan, boshqa ranglardan ajrata olmay qolganizda, siz kunning shirin uchrashuvni hayolingizga olasiz, biroq mening onam Amerikalik bo’lgan va boshqa har qaysi amerikalik kabi dunyoviy oxirigacha Chikagodagi ishchi emigrantlardan birining qizi sifatida va azal-azaldan Feminist, uning vaqtida bunday narsalar aslida urf bo’lmagan, odat bo’lmagan agar u boshqalardan shunday buyruq olsa, o’zining ongi bilan komunist bo’lgan bo’lar edi. Men



16 yoshimda Amerikaga ko'chib bordik, Reed kollejini bitirdim, sochimni belimgacha o'stirdim, Woodstokka o'qishga, protokollarga qaraganda, kechikdim, Amerika qo'shiqchilardan Nobel mukofoti laureati Bob Dilanni hurmat bilan ezozlayman, uning ovozi joyida bo'lgan vaqtlarda u boshqacha kuylaydi. Men ta'lim olishda, yozganlarimni chop etishda muvaffaqiyatga erishdim agar sizning bolalaringiz bo'lsa, ular ehtimol men muharrirlik qilgan, men yozgan mahsulotlarimdan foydalanishgan Amerikalik muharir va darslik muallifiman.

Men qanday qilib Afgoniston nomidan yoki Musulmamlar nomidan gapira oladigan, shunga munosib notiq bo'la olishim mumkin.

„Qarang men odamlarga aytib berishim mumkin bo'lgan o'zimning qisqagina tarifdan boshqa hech nimam yoq”- dedim „Men Shimoliy Alyans vakili bo'lgan og'aynimga,, Balki men Amerikaliklarga Afgonlar ham el qatori, hamma qatori oddiy insonlarga ekanligini ko'rsatishga yordam berarman, bu sohada men shundan boshqa biror ish qilish qo'limdan kelmaydi deb o'ylayman...

„Bu ham muhim”, dedi u ,uning ovozi bezovtalik va tashvihli ravishda mayinlashdi va mayuslanib umidsizlangandek tuyildi.

Shundan keyingi kechgan haftalarda bunday kayfiyatim ga qaramasdan, ommaviy axborot vositalari meni tinch qo'yishmadi, va men ularning savollariga javob berishda davom etdim. Shunday bo'lib chiqdiki, mening Avfg'oniston, Islom va fundamentalism haqida aytadigan gaplarim ko'p ekan, chinki bu masalalarni unga bog'liq bo'lgan muammolarni men butun umrim davomida o'ylab yurar edim-men hozir yashayotgan dunyo bilan orqadsa qoldirgan dunyo orasidagio ongsiz, quloqqa yoqmaydigan tovush, uyg'unsizlik, hamohang bo'lmagan, nosozlik, kelishmaganlik, ihtilof, va u dunyo men uchun yo'qoldi. Dunyoni yo'qotgan birgina men emas ekanman, gairishda davom etar ekanman men buni yaxshi tudhunib oldim. Atrofimda yo'qolib borayotgan narsa ko'p ekan balki haqiqatda bu 7 asrni qumsash, sog'inish o'ziga xos urshqoqlik emas. Balki yaqin o'tmishda bo'lgan dunyoni sog'inish qumsashdir, uning izlari xotirasi hanuz Islom dunyosidagi izlari hali hanuz osilib turibdi.





Ko'plab odamlarning ota-onalari yoki bobo-buvilari yoki juda yo'q deganda ular o'sha dunyoda o'sib o'zlari katta bo'lgan dunyoni yaxshi bilishadi albatta. Ba'zi odamlar xatto dunyoni o'z dunyoi deb biladilar, chunki ular shu dunyoda tug'ilishgan men o'sha odamlarning bittasiman xolos.

Qishloqlar va tarkibiy murakkab aralashma birliklar yo'qolgan dunyo (15-31 BETLAR)

1948 yilda men tug'ilgan yilimda ko'pchilik Afgonistonliklar Neolit davrida yasdhayotgan edilar. Bu devordan tiklangan qishloqlar dunyosi edi har bir oila odami kichkinaroq yoki ko'p katta oilalarda yashar edilar, ular o'zlari son-sanoqsiz yo'llarda nikoh qurushib eng kattalari bir birlari bilan uncha inoq bo'lmagan xira tarixiy xotiralar bilan bog'liq edilar bunday qishloqlarning avtomobillari xatto aravalari ham yo'q edi g'ildirakli velosipedlari ham yo'q edi. Umuman do'konlar elektr, pochta xizmati ham bo'lmagan u yerda mish-mish gapdan boshqa hikoya qilish va sayohat qilib yurgan odamlarning gapidan bo'lak ommaviy axborot vositalari ham bo'lmagan albatta. Aslida hamma xotinlar uy-ro'zg'or ishlarini yuritishar va bolalarini o'stirishar edilar o'g'ilbolalar esa ko'proq otalar tarbiyasida bo'lganlar.

. Biz bu gaplarni Tamim Ansariyning "Yo'qolgan Dunyo" asaridan oldik va sizning ham muallifning asarlarini, undagi tarixni o'qib o'rganishingizni hoxlar edik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ansary TM West of Kabul, East of New York: An Afghan American Story. - New York: Farrar, Straus and Giroux, 2002. - P. 300 ( 292-298p).
2. Ansary TM Destiny Disrupted: A History of the World Through Islamic Eyes Paperback – April 27, 2010.
3. Nilufar, K. (2022, May). HISTORICAL INFLUENCE OF "EAST OF NEW YORK, WEST OF KABUL" BY MIR TAMIM ANSARY. In Archive of Conferences (pp. 33-35).
4. Tojiyev.X, Xamdamova.N.F, "QUYOSH BARIBIR CHARAQLAB NUR SOCHAVERADI" ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ №9 (112) 2023 pp. 300-305.